



**ANALYSIS OF CENTRAL-ACTION MYORELAXANTS IN  
THE PHARMACEUTICAL MARKET OF THE REPUBLIC OF  
UZBEKISTAN**

**H.M. Yunusova  
H.Sh. Rakhimzhonova  
N.B. Ilhamova  
F.J. Anvarova**

Tashkent Pharmaceutical Institute, Tashkent, Republic of Uzbekistan  
\*e-mail: [xosiyatxonrahimjonova@gmail.com](mailto:xosiyatxonrahimjonova@gmail.com)  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19569505>

**ARTICLE INFO**

Received: 06<sup>th</sup> April 2026  
Accepted: 13<sup>th</sup> April 2026  
Online: 14<sup>th</sup> April 2026

**KEYWORDS**

Muscle relaxant, skeleton,  
muscle, osteoarthritis,  
pain reliever, State  
Register, non-steroidal  
anti-inflammatory drugs.

**ABSTRACT**

*This article presents the results of an analysis of drugs registered in Uzbekistan in order to expand the modern nomenclature of central-acting muscle relaxants in domestic production. The data obtained is based on the 30th issue of the State Register of Medicines and Medical Devices for 2026.*

**АНАЛИЗ МИОРЕЛАКСАНТОВ ЦЕНТРАЛЬНОГО ДЕЙСТВИЯ НА  
ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОМ РЫНКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**Х.М. Юнусова  
Х.Ш. Рахимжонова  
Н.Б. Ильхамова  
Ф.Дж. Анварова**

Ташкентский фармацевтический институт, Ташкент, Республика Узбекистан  
\*e-mail: [xosiyatxonrahimjonova@gmail.com](mailto:xosiyatxonrahimjonova@gmail.com)  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19569505>

**ARTICLE INFO**

Received: 06<sup>th</sup> April 2026  
Accepted: 13<sup>th</sup> April 2026  
Online: 14<sup>th</sup> April 2026

**KEYWORDS**

Миорелаксант, скелет,  
мышца, остеоартроз,  
обезболивающее,  
Государственный  
реестр, нестероидные  
противовоспалительные  
препараты.

**ABSTRACT**

*В данной статье представлены результаты анализа зарегистрированных в Узбекистане препаратов с целью расширения современной номенклатуры миорелаксантов центрального действия в отечественном производстве. Полученные данные основаны на 30-м выпуске «Государственного реестра лекарственных средств и медицинских изделий» за 2026 год.*

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARMATSEVTIKA BOZORIDAGI  
MARKAZIY TA'SIR ETUVCHI MIORELAKSANT DORI VOSITALARINING  
TAHLILI**

**X.M. Yunusova  
X.Sh. Rahimjonova**



IF = 9.2

N.B.Ilxamova

F.J.Anvarova

Toshkent farmasevtika instituti, Toshkent, O'zbekiston Respublikasi

\*e-mail: xosiyatxonrahimjonova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19569505>**ARTICLE INFO**Received: 06<sup>th</sup> April 2026Accepted: 13<sup>th</sup> April 2026Online: 14<sup>th</sup> April 2026**KEYWORDS**

Miorelaksant, sklet, mushak, osteoartroz, og'riq qoldiruvchi, Davlat Reestri, nosteroid yallig'lanishga qarshi dori preparatlari.

**Dolzarbliqi.** So'nggi yillarda, miorelaksantlar tarkibiga kiruvchi dori vositalari farmatsevtikaa va tibbiyot sohasida ko'p jihatdan foydalanib kelinmoqda. Ushbu dori vositalari mahalliy va chet elda bugungi kunda ko'plab ishlab chiqarilmoqda. Ammo, mahalliy ishlab chiqarish kamroq va ularning asoiy qismi chet eldan keltiriladi. Miorelaksantlar 2017-yilda AQSh da 14% farmatsevtika bozorini egallagan bo'lsa, 2021-yildan boshlab esa u 9% har yili oshib kelmoqda. Miorelaksantlar - sklet mushaklarini bo'shashtirish, og'riqni kamaytirish, jarrohlik amaliyotida qo'llanib kelinadi. Miorelaksantlarni nosteroid yallig'lanishga qarshi dori vositalari va B guruh vitaminlari bilan birga qo'llash orqali o'tkir nospetsifik bel og'rig'i, surunkali osteoartroz kasalligi bilan og'riqan bemorlar va sklet-mushak tizimi bilan bog'liq kasalliklarni samarali tarzda davolash mumkin. Ilmiy tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, miorelaksantlar guruhi ta'sir guruhi va klinik

**ABSTRACT**

*Ushbu maqolada markaziy ta'sir etuvchi miorelaksant xususiyatiga ega dori vositalarining zamonaviy nomenklaturasini mahalliy ishlab chiqarishda kengaytirish maqsadida O'zbekistonda ro'yhatdan o'tgan preparatlarning tahlil natijalari keltirilgan. Olingan ma'lumotlar, "Dori vositalari va tibbiy buyumlarining davlat reestri" ning 2026-yil 30-soni asosida olib borildi.*

qo'llanilishiga ga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

- Uzoq ta'sir etuvchi va o'rtacha davomiylikka ega
- Antisipatik va spazmolitik yoki markaziy ta'sir etuvchi [1;2;3;4;5].

Farmatsevtika bozorining ko'rsatkichi shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda, miorelaksantlar bilan davolashni takomillashtirish maqsadida qaratilgan ilmiy izlanishlar natijasida nojo'ya ta'sirlari kam va ta'sir davomiyligini boshqarish mumkin bo'lgan yangi avlod miorelaksantlari nomenklaturasini boyitish va ularni mahalliy ishlab chiqarishda yo'lga qo'yish muhim va dolzarb masalalardan biridir. Ular, an'anaviy miorelaksantlarga qaraganda nojo'ya ta'sirlari kam va ta'sir davomiyligi boshqarish mumkinligi bilan ajralib turadi [2].

**Tadqiqotning maqsadi.** Ushbu tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasida ro'yhatga olingan miorelaksantlar guruhiga kiruvchi markaziy ta'sir etuvchi miorelaksant dori vositalari sharhini ko'rsatadi.



## Tadqiqot materiallari.

Miorelaksantlar ta'siriga ega dori vositalar bozorini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasi Dori vositalar va tibbiy buyumlar Davlat Reestrining 2022-2026 yillari asosida olib borildi.


## Natijalar va muhokama.

Tadqiqotimizda, O'zbekiston Respublikasining Dori vositalari va tibbiy buyumlarining 2022-2026 yillardagi Davlat Reestridan foydalandik. Unga ko'ra, bugungi kunda respublikamizning qariyb 90% ni import dori vositalari egallab kelmoqda. Miorelaksant

preparatlar ham shular jumlasiga kiradi. Shuningdek, farmakotepavetik guruhi bo'yicha miorelaksantlar guruhiga kiruvchi markaziy ta'sir etuvchi miorelaksantlar, hamda ushbu preparatlarning assortiment tahlillari o'rganildi.

Tadqiqotlarimiz natijasiga ko'ra, so'nggi yillarda markaziy ta'sir etuvchi miorelaksant preparatlari mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarish kamaygan, so'nggi ikki yilda esa umuman ishlab chiqarilmagan.

Olib borilgan tadqiqotimiz natijalar esa 1-rasmda keltirilgan.



### 1-rasm. 2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasi Dori vositalari va tibbiy buyumlarining davlat reestrda ro'yhatdan o'tgan markaziy ta'sir etuvchi miorelaksantlar ro'yhati


Tadqiqotlarimiz natijasi bo'yicha, 2022-2026 yillarda jami 69 turdagi miorelaksantlar ro'yhatdan o'tgan. Shundan, markaziy ta'sir etuvchi miorelaksant preparatlari 46,37% ni tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkichdan, eng katta ulushni 43,75% bilan 2022-yilda ro'yhatdan o'tgan markaziy ta'sir etuvchi miorelaksant preparatlari, eng kam

natijani esa 3,125% bilan 2026-yil egallagan. Bunda, 2022-yil mahalliy ishlab chiqaruvchilar 28,57% ni tashkil qilsa, 71,4% ni import asosidagi preparatlar egallagan. Ushbu ko'rsatkich, 2026-yilga kelib katta o'zagrishga uchragan. Unga ko'ra, jami ro'yhatdan o'tgan markaziy ta'sir etuvchi miorelaksant preparatlari 92,9% ga kamaygan. Shundan, mahalliy ishlab chiqarish 0 % ga tushgan, import qilingan preparatlar esa 100% ni egallagan. Izlanishlarimiz natijasi shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan

markaziy ta'sir etuvchi miorelaksant preparatlari ishlab chiqarilmayapti. Bu shuni bildiradiki, iste'molchilar talablarini to'liq qondirish maqsadida mahalliy ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish kerak. Shuningdek, 2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasi Dori vositalari va tibbiy buyumlarining davlat reestrda

markaziy ta'sir etuvchi miorelaksantlar preparatlari farmatsevtika bozorida uchraydigan turli dori shakllari: tabletkalar, kapsula, in'eksiya, tomchi va krem ko'rinishlarida ro'yxatdan o'tgan.

Tadqiqot natijalari 2-rasmda keltirilgan.



**2-rasm. 2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasi Dori vositalari va tibbiy buyumlarining davlat reestrda ro'yxatdan o'tgan markaziy ta'sir etuvchi miorelaksantlar assortiment tahlili**

2-rasmda ko'rinib turibdiki, markaziy ta'sir etuvchi miorelaksantlar dori shakllari orasida birinchi o'rinda tabletkalar (44%), so'ng in'eksiya (38%), krem (9%), kapsula (6%) va eng so'nggi

o'rinda tomchi shakldagi eritmalar (3%) ni egallagan.

#### **Xulosa.**

Yuqoridagi tadqiqotlarimiz natijalaridan kelib chiqqan holda, so'nggi yillarda markaziy ta'sir etuvchi miorelaksantlar bilan nosteroid yallig'lanishga qarshi dori preparatlari bo'yicha kombinirlangan preparatlar deyarli ishlab chiqarilmasligi aniqlandi. Bu esa, istiqbolli kelajak uchun mahalliy ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish kerakligini anglatadi.

#### **References:**

1. Umarova G, Karimov A, Tursunov M. Development of the pharmaceutical industry in Uzbekistan: Current status and prospects. *Central Asian Medical Journal*. 2024;6(4):102-110.
2. Ravshanova S.E., Yunusova X.M. O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika bozorida metamizol natriy asosidagi kombinirlangan preparatlar tahlili // *Farmatsevticheskiy Vestnik Uzbekistana*.-Tashkent.-2019.-№2.-S.25-30.



3. Yunusova.X.M., Abdijalilova Z.X., Ilxamova N.B. Mahalliy farmasevtik bozorda yo'talga qarshi dori preparatlarining ishlab chiqaruvchilarni tahlili // Farmasevtika jurnali.- Toshkent-2020.-№ 3.-B.8-11.
4. Jaloliddinova M.Sh., Yunusova X.M. // Mahalliy farmasevtika bozoridagi nosteroid yallig'lanishga qarshi dori vositalari assortimentining tahlili // O'zbekiston farmasevtik xabarnomasi.-Toshkent.-2019.-№1.-B.5-8.
5. X.M.Yunusova, K.N.Xakimova. Sostoyanie preparatov serukala v Res-publike Uzbekistan i perspektivy ix proizvodstva. Sb.mater. IV mejd.zaachnoy nauch.-prakt.konf. «Nauchnaya diskussiya: innovatsii v sovremennom mire».Ch-II-Moskva, 2012.
6. Ilxamova N.B.,Djalilov X.K. Marketingovoe izuchenie protivoglistnykh preparatov i perspektivy ix proizvodstva v Respublike Uzbekistan// Aktualnye problemy sovremennoy nauki i puti ix resheniya. Yevraziyskiy soyuz uchenykh (YeSU).- 2016. - №1(22).-str.163-167
7. Ilxamova N.B., Yunusova X.M., Tashmatova M.A. O'zbekiston Respublikasi farmasevtika bozoridagi diabetga qarshi preparatlarning tahlili // O'zbekiston Farmasevtik xabarnomasi.-2022.-№4.-B.22-25
8. Turdieva Z.V., Yunusova X.M. O'zbekiston Respublikasi farmasevtika bozoridagi sedativ dori vositalarining tahlili //O'zbekiston farmasevtika xabarnomasi.-2022. -№3.-B.22-25